



O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKCHILIKNI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY ASOSLARI: ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Tashmatova Nozima Rustam qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktranti
e-mail: tashmatovanozima@gmail.com

Annotatsiya: Mamlakatimizda ro'y berayotgan islom moliyasi, islom bankchiligi, islom mikromoliya tashkilotlariga qaratilayotga keng ko'lamli o'zgarishlar, ularni mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganadi.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, islomiy banklar, islom moliya mahsulotlari, huquqiy baza, kuzatuv kengashi.

Abstract: The article examines the large-scale changes taking place in our country in the direction of Islamic finance, Islamic banking, and Islamic microfinance organizations, and their impact on the country's economy.

Keywords: Islamic finance, Islamic banks, Islamic financial products, legal framework, supervisory board.

Абстрактный: В статье рассматриваются масштабные изменения, происходящие в нашей стране в направлении исламских финансов, исламского банкинга и исламских микрофинансовых организаций, а также их влияние на экономику страны.

Ключевые слова: исламские финансы, исламские банки, исламские финансовые продукты, правовая база, наблюдательный совет.


Kirish (Введение/Introduction).

Islom moliyasi, islom moliya mahsulotlari, islomiy bankchilik, islomiy iqtisodiyot muqobil variant sifatida kirib kelayotgan bu bu tizim dunyo iqtisodiy ko'rsatkichlarida ijobiy natijalarni bermoqda. Islom moliya institutlari tomonidan ishlab chiqiladigan yillik hisobotlarning ko'rsatkichlarini kuzatsak, islom moliyasi eng mustaxkam muqobil variant sifatida ko'rilmog'qa.

Islom moliyasi bugun jahon moliya tizimida eng jadal rivojlanayotgan sohalardan biriga aylandi. Global hajmi 5 trillion dollardan oshgan bu tizim, 80 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritmoqda.

Umumiy islom moliya aktivlari 6 trillion AQSh dollariga ega bo'lib, yillik o'sish ko'rsatkichi 21% ga teng. Islom moliya institutlari soni esa 2 255 taga tengdir.

Islamic finance assets growth
(US\$ billion, 2018 - 2024)



1-rasm. Islom moliya aktivlarining o'sish ko'rsatkichi. Yillar kesimida.[10]

Grafik ma'lumotlariga ko'ra, jahon miqyosida islomiy moliya aktivlari hajmi 2018–2024-yillar davomida izchil o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2018-yilda islomiy moliya aktivlarining umumiy hajmi 2,505 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2019-

yilda 2,909 mlrd dollar, 2020-yilda 3,329 mlrd dollar, 2021-yilda 3,989 mlrd dollar va 2022-yilda 4,304 mlrd dollarga yetgan. 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 4,963 mlrd dollarni, 2024-yilda esa 5,985 mlrd dollarni tashkil etgan. Mazkur davrda islomiy moliya aktivlarining hajmi qariyb 2,4 barobarga oshgan. Ayniqsa, 2023–2024-yillarda aktivlar hajmining sezilarli darajada o'sishi jahon moliya tizimida islomiy moliyaga bo'lgan talab va qiziqishning ortib borayotganini ko'rsatadi. Grafikda 2029-yil uchun berilgan prognozga ko'ra, islomiy moliya aktivlari 9,719 mlrd AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Bu 2024-yilgi ko'rsatkichga nisbatan qariyb 62 foizga yuqori bo'lib, kelgusi yillarda islomiy moliya industriyasining yanada kengayishi kutilayotganini anglatadi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda islomiy bankchilikni tartibga soluvchi zamonaviy huquqiy bazaning shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilish, amaldagi qonunchilik hujjatlarining islomiy bank faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini baholash hamda mavjud muammolarni aniqlash asosida uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida O'zbekistonda islomiy bankchilikning huquqiy asoslari, islomiy bank faoliyatini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar, islomiy moliya operatsiyalarining huquqiy maqomi hamda islomiy bankchilikni rivojlantirish istiqbollari tadqiq etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Методология исследования, Research methodology.)

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda islomiy bankchilikni tartibga solishning huquqiy asoslarini o'rganish va amaldagi normativ-huquqiy mexanizmlarning rivojlanish istiqbollarini baholash uchun tizimli, qiyosiy-huquqiy, normativ-huquqiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini islomiy bank faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari[1], xususan, bank faoliyatiga oid qonunlar, Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari hamda islomiy moliya sohasidagi xalqaro standart va yondashuvlar tashkil etdi. Shuningdek, islomiy moliya industriyasining global rivojlanish tendensiyalarini aks ettiruvchi statistik

ma'lumotlardan foydalanilib, ularning O'zbekistonda islomiy bankchilikni rivojlantirish zarurati bilan bog'liqligi tahlil qilindi.

Qiyosiy-huquqiy usul islomiy bankchilikni tartibga solishning O'zbekiston modeli bilan xalqaro amaliyot o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashda qo'llanildi. Bunda xalqaro islomiy moliya standartlari va rivojlangan islomiy moliya bozorlarida shakllangan institutsional mexanizmlarning O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholandi. Tizimli yondashuv asosida islomiy bankchilikning huquqiy tartibga solinishi o'zaro bog'liq elementlar — qonunchilik bazasi, Markaziy bank nazorati, litsenziyalash, islomiy moliya kengashi, prudensial tartibga solish, buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish mexanizmlarining yagona tizimi sifatida ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanish orqali alohida normativ-huquqiy normalardan kelib chiqadigan umumiy xulosalar shakllantirildi hamda islomiy bankchilikni rivojlantirishning umumiy nazariy tamoyillari O'zbekistonning amaldagi huquqiy va institutsional sharoitiga tatbiqan baholandi.

Adabiyotlar sharhi (Literature review, Литературный обзор).

Dual bank tizimida an'anaviy va islomiy moliya yonma-yon faoliyat yuritib, asosiy farqi foizsiz bitimlar, foyda-zararni baham ko'rish va real aktivlarga tayanishidadir (Usmani, 2002; Iqbal & Mirakhor, 2011)[7]. AAOIFI va IFSB xalqaro standartlariga muvofiq, islomiy banklarda Shariat Nazorat Kengashining mavjudligi xizmatlarning halolligini ta'minlovchi asosiy institutsional mezon hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlar (Xasanov, Jumayev)[9] shuni ko'rsatadiki, islomiy bankchilikni rivojlantirishda eng katta to'siqlar — huquqiy va soliq qonunchiligidagi nomuvofiqliklar hamda ikkilanma soliqqa tortish xavfidir. Hozirda O'zbekistonda "Banklar to'g'risida"gi[1] va "Mikromoliya tashkilotlari to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirishlar kiritish orqali "islomiy darchalar" hamda mikromoliya sektoriga huquqiy zamin yaratilmoqda. Kelgusida tizimni to'liq yo'lga qo'yish uchun Soliq kodeksida soliq tengligini (tax neutrality) ta'minlash va Markaziy bank huzurida yagona Shariat Kengashini tashkil etish talab etiladi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты, Analyse and results)

O'zbekistonda islomiy moliya xizmatlarini rivojlantirish jarayoni dastlab mavjud bank va nobank moliya tashkilotlari doirasida ayrim islomiy moliya tamoyillariga asoslangan xizmatlarni joriy etish orqali shakllana boshlagan bo'lsa, keyingi bosqichda mazkur faoliyatni alohida huquqiy mexanizm asosida tartibga solish zarurati yuzaga keldi. Chunki islomiy bank faoliyati an'anaviy bank faoliyatidan operatsiyalarning iqtisodiy mazmuni, moliyalashtirish mexanizmlari, daromadni shakllantirish prinsiplari va shariat talablariga muvofiqlikni ta'minlash mexanizmlari bilan farq qiladi. Shu sababli islomiy bankchilikni milliy bank tizimiga samarali integratsiya qilish uchun maxsus huquqiy normalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Islamic banking




2-rasm. Islomiy banklar rivojlanish ko'rsatkichi.

Islomiy banklar aktivlari 2024-yilda 4 32 trillion AQSh dollariga teng bo'lgan. Yillik o'sish sur'ati 21% ni tashkil qilsa, umumiy islom banklari va islom moliya darchalari soni 681 taga yetgan. Bu ko'rsatkichlardan ham ko'rsak bo'ladiki, islom moliya tedensiyalari rivojlanib bormoqda. U o'ziga investorlarni, aholini jalb qilish uchun

ularni haq huquqlarini himoya qiladigan bir tizim yaratilishi kerak edi, aynan shu narsa 2026-yilda yuz berdi. Mazkur yo'nalishda eng muhim huquqiy qadam O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O'RQ-1126-son "O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi bo'ldi. Ushbu qonun bilan bir qator qonunchilik hujjatlariga islomiy bank faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy normalar kiritildi. Qonun 2026-yil 29-iyundan kuchga kirgan. Mazkur qonunning ahamiyati shundaki, unda islomiy bank faoliyati faqat alohida moliyaviy mahsulot sifatida emas, balki bank faoliyatining huquqiy jihatdan tartibga solinadigan mustaqil yo'nalishi sifatida shakllantirilmoqda. Jumladan, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga ***Bankning islomiy moliya operatsiyalari***ga bag'ishlangan 51-modda kiritilib, banklarning islomiy moliya operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyati qonunchilik darajasida mustahkamlandi. O'zbekiston qonunchiligidagi islomiy bank faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyalash mexanizmining joriy etilishi alohida ahamiyatga ega. Qonunchilikka ko'ra, islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya alohida huquqiy asos sifatida belgilanadi. Shu bilan birga, mavjud bank faoliyatini islomiy bank faoliyatiga moslashtirish imkoniyati ham nazarda tutilgan. Xususan, bank faoliyatini amalga oshiruvchi bankka islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya berish tartibi belgilangan. Bunda bankning moliyaviy barqarorligi, islomiy moliya kengashi a'zolari hamda islomiy bank faoliyatiga mas'ul rahbar xodimlarning belgilangan malaka talablariga muvofiqligi kabi mezonlar hisobga olinadi. Bu yondashuv O'zbekiston uchun dual bank tizimini shakllantirish nuqtayi nazaridan muhimdir. Ya'ni, islomiy bank xizmatlarini mavjud an'anaviy bank tizimidan butunlay ajratib qo'yish emas, balki amaldagi bank infratuzilmasidan foydalangan holda islomiy bank faoliyatini ham rivojlantirish imkoniyati yaratilmoqda. Shu bilan birga, islomiy bank faoliyatining o'ziga xosligi sababli unga nisbatan qo'shimcha boshqaruv va nazorat mexanizmlari ham joriy etilmoqda.

Qonunchilikdagi yana bir muhim yangilik — "islomiy moliya kengashi" institutining joriy etilishidir. Bankning islomiy moliya kengashi islomiy moliya operatsiyalarining tegishli standartlarga muvofiqligini ta'minlashda muhim institutsional bo'g'in sifatida shakllantirilmoqda. Qonunga ko'ra, bankning islomiy moliya kengashi kamida uch nafar a'zodan iborat bo'lishi lozim va ushbu a'zolarga qo'yiladigan talablar Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Bundan tashqari, kengashning vazifalari bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki boshqa boshqaruv organlariga yuklatilishi mumkin emas. Mazkur mexanizm islomiy bank faoliyatida **Shariat muvofiqligi (Shariah compliance)**ni institutsional jihatdan ta'minlash imkonini beradi. An'anaviy banklarda asosiy e'tibor moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish va prudensial talablarga qaratilsa, islomiy banklarda bunga qo'shimcha ravishda amalga oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalarning islomiy moliya standartlariga muvofiqligi ham nazorat qilinishi zarur. Shu sababli islomiy moliya kengashi instituti islomiy bankchilikning o'ziga xos boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Quyidagi rasmda kengashning ishlash tartibi korsatilgan.

ISLOMIY MOLIIYA (SHARIAT) KENGASHINING BANK TIZIMIDAGI O'RNI



3-rasm. Islomiy moliya kengashning bank tizimidagi o'rni.¹

Islomiy bankchilikning samarali faoliyat yuritishi uchun faqat qonun qabul qilinishi yetarli emas. Qonunda belgilangan umumiy normalarni

¹ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzuldi.

amaliyotga tatbiq etish uchun Markaziy bank tomonidan tegishli ikkilamchi normativ-huquqiy hujjatlar, standartlar va nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

2026-yilgi o'zgartirishlar bilan Markaziy bankning islomiy moliya sohasidagi vakolatlari ham kengaytirildi. Xususan, Markaziy bank kredit tashkilotlari uchun islomiy moliya standartlarini tasdiqlash, islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklarda islomiy moliya standartlariga muvofiq boshqaruv tizimini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni belgilash hamda islomiy moliya kengashi a'zolarining malakasiga oid mezonlarni belgilash vakolatlariga ega bo'ldi. Shuningdek, Markaziy bank tizimida islomiy moliya xizmatlarini tartibga solish va nazorat qilishga ixtisoslashgan funksiyalar shakllantirilmoqda. Markaziy bankning tegishli departamenti zimmasiga islomiy moliya xizmatlarini tartibga solish va nazorat qilish, ushbu sohadagi normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, islomiy moliya operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi qoidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish va likvidlikni boshqarish vositalarini joriy etish kabi vazifalar yuklangan.

O'RQ-1126-son Qonun bilan banklarga islomiy moliya operatsiyalarini amalga oshirish huquqi berilishi ushbu yo'nalishda muhim qadam bo'ldi. Natijada islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini bank amaliyotiga joriy etish uchun qonunchilik bazasi yaratildi. Bunda moliyaviy operatsiyalar bo'yicha foizlarni hisoblashdan farqli ravishda islomiy moliya operatsiyalarida ustama va/yoki foydadan olinadigan ulushni hisoblash hamda ulami bankning daromadlari yoki xarajatlari hisobvaraqlarida aks ettirish bilan bog'liq talablarni belgilash Markaziy bank vakolatlariga kiritildi.

Mazkur norma islomiy bank mahsulotlarining iqtisodiy mazmunini an'anaviy kredit operatsiyalaridan farqlash uchun muhimdir. Masalan, murobaha operatsiyasida bank tomonidan aktivni sotib olib, uni mijozga kelishilgan ustama bilan sotish mexanizmi qo'llanilishi mumkin. Mushoraka va mudaraba kabi instrumentlarda esa tomonlarning kapital ishtiroki va foyda hamda risklarni taqsimlash mexanizmi muhim o'rin egallaydi. Shu sababli bunday operatsiyalarni amaldagi fuqarolik, soliq, buxgalteriya va bank qonunchiligi bilan muvofiqlashtirish islomiy bankchilikning amaliy rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbekistonda islomiy moliyani rivojlantirish faqat tijorat banklari bilan cheklanib qolmasligi lozim. 2026-yilgi qonunchilikda mikromoliya banklari faoliyatini ham islomiy bank xizmatlari bilan bog'lash imkoniyatlari nazarda tutilgan. Jumladan, mikromoliya tashkiloti faoliyatini mikromoliya banki faoliyatiga yoki faqat islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi mikromoliya banki faoliyatiga o'zgartirish orqali mikromoliya bankini tashkil etish imkoniyati belgilangan. Mazkur mexanizm, ayniqsa, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish nuqtayi nazaridan muhim istiqbolga ega. Chunki kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda mikromoliyalashtirish muhim o'rin tutadi. Islomiy moliya instrumentlarining ushbu segmentga joriy etilishi tadbirkorlar uchun

moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini berishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Выводы и предложения).

O'zbekistonda islomiy bankchilik uchun asosiy huquqiy poydevorning yaratilishi ijobiy qadam bo'lsa-da, uning amaliy ishlashi uchun hali qator masalalarni hal qilish talab etiladi. Birinchi navbatda, islomiy moliya operatsiyalarining fuqarolik-huquqiy, soliq va buxgalteriya jihatlarini o'zaro muvofiqlashtirish zarur. Chunki bitta islomiy moliya operatsiyasi an'anaviy kreditdan farqli ravishda aktivni sotib olish, egalik qilish va qayta sotish kabi bir nechta huquqiy jarayonlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ikkinchidan, islomiy moliya standartlarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Markaziy bank tomonidan islomiy moliya standartlarini tasdiqlash vakolatining belgilanishi ushbu jarayonning institutsional asosini yaratadi. Biroq xalqaro standartlar, jumladan AAOIFI va IFSB yondashuvlarini O'zbekistonning mavjud bank, soliq va buxgalteriya tizimi bilan uyg'unlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Markaziy bankning 2026-yil may oyida islomiy bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish masalalari bo'yicha xalqaro ekspertlar bilan Islomiy moliya kengashi, prudensial talablar va boshqaruv tizimi masalalarini muhokama qilgani ham mazkur jarayonning davom etayotganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, islomiy moliya sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash muhim masalalardan biridir. Islomiy bank faoliyatida bank ishi, moliya va iqtisodiyot bilan bir qatorda shariat asoslari, islomiy tijorat huquqi va xalqaro islomiy moliya standartlarini biladigan mutaxassislarga ehtiyoj mavjud. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida islomiy moliya bo'yicha maxsus ta'lim dasturlarini rivojlantirish, bank xodimlari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish hamda xalqaro islomiy moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, aholining islomiy moliya mahsulotlari to'g'risidagi moliyaviy savodxonligini oshirish ham muhimdir. Islomiy bankchilikning huquqiy asoslari yaratilgan bo'lsa-da, uning bozordagi muvaffaqiyati aholining ushbu mahsulotlarning iqtisodiy mohiyati, afzalliklari va risklarini to'g'ri tushunishiga ham bog'liq. Shuning uchun islomiy moliya mahsulotlarini ommalashtirish jarayonida faqat diniy jihatlariga emas, balki ularning iqtisodiy va moliyaviy xususiyatlariga ham e'tibor qaratish lozim.

Umuman olganda, O'zbekistonda 2026-yilda qabul qilingan qonunchilik islomiy bankchilikni rivojlantirishning birlamchi huquqiy asosini shakllantirdi. Endilikdagi asosiy vazifa ushbu qonunchilikni amaliy mexanizmlar bilan to'ldirish, xalqaro standartlarga mos prudensial va shariat boshqaruvi tizimini yaratish, islomiy moliya operatsiyalarining buxgalteriya va soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish hamda bank va nobank moliya tashkilotlarida ushbu instrumentlardan foydalanish ko'lamini kengaytirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliya tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (islomiy moliyalashtirish bitimlariga soliq solish qismi bo'yicha).
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining islomiy darchalar va mikromoliya tashkilotlarida islomiy moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatishga oid nizom va ko'rsatmalari.
5. AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) — Shari'ah Standards & Accounting Standards. Manama, Bahrain.
6. IFSB (Islamic Financial Services Board) — Guiding Principles on Corporate Governance for Institutions Offering Islamic Financial Services. Kuala Lumpur, Malaysia.
7. Usmani, M. T. (2002). An Introduction to Islamic Finance. Arham Associates.
8. Iqbal, Z., & Mirakhor, A. (2011). An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. John Wiley & Sons.
9. Xasanov, X., & Jumayev, N. — O'zbekistonda islomiy moliya va bankchilikni rivojlantirish istiqbollari. Ilmiy maqola va dissertatsiyalar.
10. Islom taraqqiyot banki (ITB) va Xalqaro xususiy sektorni rivojlantirish korporatsiyasi (ICD) hisobotlari hamda tadqiqot materiallari.